

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA STATIVLIK KATEGORIYASINING TADQIQI*M. To'qboyeva¹**Annotatsiya:*

Mazkur maqolada qardosh bo'lmagan tillar tizimida holat kategoriyasining ifodalanishi hamda holatni ifodalovchi birliklarning sintaktik o'rne, til sathlarida lisoniy metodlar asosida tahlili yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: holat kategoriyasi, gap qurilmasi, stativ elementlar, sintaktik tahlil, lisoniy metod.

doi: <https://doi.org/10.2024/ckgchm63>

Hozirgi zamon tilshunosligida xususan, qardosh bo'lmagan ingliz va o'zbek tillarida muhim muammolardan biri hisoblangan stativlik kategoriyasi har ikkala til grammatikasida ham qo'llaniladi. Ingliz tili grammatikasida holat kategoriyasi deb, subyekt vazifasida kelgan shaxs yoki predmetning ma'lum bir vaqtdagi holatini, aqliy yoki jismoniy kayfiyatini ma'lum joyda turganligini yoki biror maqsadga yo'naltirilganini ko'rsatuvchi kategoriyaga aytiladi [3,32]. Ingliz tilida holat kategoriyasi o'zida keng mano jamlagan holda o'zi ifoda etayotgan subyekt va predmetning holatini aks ettiradi.

Masalan: I read aloud from Howard Pyle's book of Pirates.

Ingliz tili grammatikasida holat kategoriyasini ifodalanish jihatlari bir qancha guruhlariga bo'lingan holda talqin etiladi. Xususan, ingliz tilshinoslari V.N.Jigadlo va L.S.Barxudarovlar holatni leksik-grammatik tuzilishga ko'ra 3 guruhga ajratganlar: aqliy, jismoniy va obyektning vaziyatiga ko'ra holatni guruhlashgan.

1. Psychic state of a person (afraid, ashamed). I should have been ashamed to come today.

2. Physical state of a person (astir, afoot). Loader was afoot in an instant (Merry.)

3. Physical state of an object (afire, ablaze). The house afire.

Morfologik strukturaga ko'ra holat kategoriyasini ko'rsatuvchi so'zlar a-affiksi yordamida yasaladi. Masalan: awake, alone

O'zbek tili grammatikasida holat kategoriyasi alohida talqin etilmagan va gapda ifodalanishi o'rganib chiqilmagan. Bu kategoriya o'zbek tili grammatikasida fe'lning vazifa shakllari ostida harakat qiladi. Fe'llarning gap tarkibida bajaradigan asosiy vazifasi kesim bo'lib kelish ekanligi bizga ma'lum. Shu vazifani bajarish uchun fe'l malum bir shakllarda kelishi lozim. Bunday shakllarga fe'llarning munosabat shakllari deyiladi. Munosabat shakllariga fe'llarning shaxs-son, zamon, mayl, shakllari kiradi. Har qanday fe'l shu shakllarga ega bo'lsa, u kesim vazifasini bajara oladi. O'zbek tili grammatikasida holat kategoriyasi fe'l turkumi orqali yasaladi. Masalan: Ular xonaga kirganda bir qalqib tushib, o'zimizni o'nglab olar edik.

¹ To'qboyeva Malohat Bahodirovna, Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

O'zida leksik-grammatik xususiyatlarini ifodalash jarayonida fe'l tarkibida holat kategoriyasini ifodalanishi kuzatiladi. O'zbek tilida ham shaxs yoki narsalarning harakatini bildirgan kategoriya holat kategoriyasi deb nomlanadi.

Ingliz tilshunosi B.I.Ilyish ingliz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi so'z o'rnida ishlatish mumkin bo'lgan turkumlar haqida quyida shunday tarif bergan: "Holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar ravish turkumiga kirishi bilan faqatgina ularni manosini ifodalamaydi, gapning to'ldiruvchisi bo'lib uning ma'nosini kengaytiradi" [1,31].

Holat kategoriyasini ko'rsatuvchi sintaksemalar ba'zan fe'l, ot, ravish, sifat bo'lib kelishi mumkinligi haqida ingliz tilshunoslari o'z fikrlarini bildirishgan.

"State" yoki "holat" ni bildiruvchi sintaksemalar yuqorida qismlarga ajratildi. Bu jihatlarni inobatga olgan holda mustaqil so'z turkumlarining leksemik manolariga ahamiyat beradigan bo'lsak, holat bu otlashgan sifat ko'rinishida gapda ishtirok etadi. Masalan: agog, afraid, ablaze, adrift.

Umumiy grammatikada bu so'zlarni umumlashtirib ataydigan bo'lsak, "kesimli sifat" deb nomlansa, bazan "ravish tarkibidagi so'z" deb atalardi. Gapdagi uning qo'llanilish holatlari turlicha, ba'zan predikativ, ba'zan ot o'rnida qo'llaniladigan xususiyat bo'lib keladi.

Tajriba asosida sinalmagan holatni bildiruvchi so'zlar va ularning predikativlik holatlarini so'z turkumlarida ilk bor rus tilshinoslari L.V.Shcherba va V.V.Vinogradov ajratib tahlil qilishgan. Bu ikki tilshinoslarning fikricha bu yangi turkumni "the category of state" (va, bu kategoriyaning hosil qilishda ishtirok etadigan so'zlarni "words of the category of state") deb nomlaydilar.

So'z turkumlarida holat kategoriyasining faqatgina tilshunoslar tomonidan ishlatilish jihatlari o'rganilib qolmay balki, uning o'rindosh va vazifadosh shakllari ham o'rganildi. Ehtimol, holat kategoriyasini so'z turkumida aniq va ravshan ta'rif berib hamda sharhlagan olimlar B.S.Xaymovich va B.I.Rogovskayalardir [3, 120].

Ilk bor "statives" yuqoridagi olimlar "adlinks" ya'ni ravishni to'ldiruvchisi va o'xshashi deb ataydilar. Bu sifatga o'xshash degan fikrga qarama-qarshi bo'lib, semantik jihatdan qaraganda sifatda daraja kategoriyalari bo'lsa, "adlinks" da holat aks ettiriladi. Ikkinchi farq "adlinks" a-prefiksiz ham gapda erkin harakat qila oladi, uning aniq bir funksiyasi mavjud emas, sifat ot o'rnida qo'llanilish xususiyatiga ega emas, "adlinks" esa bu holatda qo'llanila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Ilyish B.A. *The structure of modern English*. Moscow – Leningrad: Prosveshenie. 1971.-31-32r.
- [2]. Jigadlo V.N, Ivanova I.P, Iofik L.L. *Sovremennyy angliyskiy yazik. Teoriticheskiy kurs grammatika*. Moskva: Izd-vo lit-ri na inostr.yaz. 1965.-350s.
- [3]. Khaimovich B.S., Rogovskaya B.I. *A course in English Grammar*. - Moscow: Visshaya shkola, 1967.- 200r.